


011-02-05-52  
27.05.2022-y.



**Samarqand viloyati statistika boshqarmasida 2022- yil 25- mayda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'tkazilgan navbatdagi yig'ilishi**

**BAYONI № 10**

2022- yil 25- may

Samarqand shahri

**Raislik qiluvchi:** D. Musinov Boshqarma boshlig'i  
**Qatnashdilar:** Boshqarma boshlig'ining o'rinbosarlari, Komissiya a'zolari, boshqarma hamda shahar, tuman statistika bo'limlari boshliqlari (ro'yxat bo'yicha)

**KUN TARTIBI**

**Samarqand viloyati statistika boshqarmasi tizimida 2022- yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasining ijrosi hamda Samarqand viloyati hokimi Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy Kengashi raisi tomonidan 2022- yil 25- mayda 15-01/67-son bilan tasdiqlangan yig'ilish bayoni qarorining tegishli bandlarida belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida "Korrupsiya taraqqiyot kushandasi", "Korrupsiya adolat kushandasi", "Men korrupsiyaga qarshiman", "Korrupsiya mamlakat taraqqiyotiga to'siq" va "Korrupsiyaga qarshi kurash, hammamizning burchimiz" mavzularini muhokama etish to'g'risida.**

*(D.Musinov, Sh.Abdiyev, A.Suyunov, Z.Davronov, F.Eshonkulov, U.Sadirov, D.Musinov)*

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan boshqarma boshlig'i D. Musinov so'zga chiqib, Samarqand viloyati statistika boshqarmasi tizimida 2022- yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasining tegishli bandlarida belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida "Korrupsiya taraqqiyot kushandasi", "Korrupsiya adolat kushandasi", "Men korrupsiyaga qarshiman", "Korrupsiya mamlakat taraqqiyotiga to'siq" va "Korrupsiyaga qarshi kurash, hammamizning burchimiz" mavzulari yuzasidan axboroti eshitildi.

Respublikamizda sodir etilayotgan korrupsiyaviy jinoyatlarning aksariyati o'shna-og'aynigarchilik, qarindosh-urug'chilik bilan bog'liq holda amalga oshirilmoqda.

Bunday jinoyatlarni ochish o'ziga xos qiyinchilik tug'diradi. Xalq esa bunday jinoyatlardan bexabar qolmaydi. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi idoralarning ma'lum bir hududda, muayyan bir organning faoliyati xususida sotsial so'rovlar o'tkazishi, ulardan anonim xatlar qabul qilinishi va aniq bir shaxsga berilgan xalqning bahosini tekshirib ko'rish maqsadida nazorat o'rnatish imkoniyatlarini

yaratish korrupsiyaviy jinoyatlarni ochishning samarador vositasi hisoblanadi.

Korrupsiyaning eng yomon oqibatlaridan biri xalqning davlatga va mansabdor shaxslariga ishonchi susayadi. Bugun islohotlar jarayoniga to'siq bo'layotgan, tadbirkorlik va tashabbuskorlikka to'g'anoq bo'layotgan va qator ijtimoiy salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan korrupsiyaga xalqaro miqyosda ham ijtimoiy xavfli illat sifatida baho berilgan. Pirovard maqsadimiz sanalmish demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish barcha sog'lom kuchlarning bu illatga qarshi keskin va hamjihatlikda kurashini talab qiladi.

Korrupsiya botqog'iga botgan amaldorlar jamiyat taraqqiyotiga g'ov bo'lib, umri xalqqa xiyonat qilish, yosh avlod ongini zaharlash bilan o'tishini endi keng jamoatchilik yaxshi tushunadi. Bu illatga qarshi kurash – toza vijdonli, oriyatli insonlarning qalb amriga aylanmog'i lozimligi hamda korrupsiya balosiga mutlaqo tizimda yo'l qo'yib bo'lmasligi, bu illatni tag-tomiri bilan yo'qotish zarurligi haqida atroflicha so'z yuritdi.

Aytish joizki, korrupsiyaga qarshi kurash borasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish, poraxo'rlik, ta'magirlik kabi huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga qat'iy chek qo'yish, bunday jinoyatlarga qarshi jazo muqarrarligini har bir shaxs bilishi zarurligi, korrupsiya balosining naqadar mudhish illat ekanini tushungan, uni ongli ravishda idrok etgan odam bu jinoyatga qo'l urmasligini ta'kidlab o'tdi.

Bugungi kunda har bir davlatda korrupsiyaga qarshi kurash davom etayotganli va har bir davlat va jamiyat korrupsiyaga qarshi kurashish yo'lini o'zi tanlaydi, aniqrog'i, qanday yo'l to'g'ri ekanini hayot ko'rsatadi. Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashni keng qamrovda olib borish choralari ko'zda tutilgani, bu borada har bir masalaga alohida e'tibor qaratilgani bejiz emasligi yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari qilib, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, unga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash kabi vazifalar ko'rsatib o'tilishi hamda korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish, ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya masalalari bugunning muhim vazifalaridan biri ekanligi chunki huquqiy ong va huquqiy madaniyati yuksak bo'lgan va huquqiy ta'lim va tarbiya jihatdan yetuk bo'lgan insonlar salbiy illat bo'lmish korrupsiyaga yo'l qo'ymasligini ta'kidlab o'tdi.

Yig'ilish kun tartibidagi masalalarni muhokama qilib,

### **QAROR QILADI:**

1. Boshqarma boshlig'i D. Musinovning "Korrupsiya taraqqiyot kushandasi", "Korrupsiya adolat kushandasi", "Men korrupsiyaga qarshiman", "Korrupsiya

mamlakat taraqqiyotiga to'siq" va "Korrupsiyaga qarshi kurash, hammamizning burchimiz" mavzulari yuzasidan bergan axboroti tizimda rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Axborot xizmati (Sh.Muhammadiyeva) va Dasturiy texnik-ta'minot va ma'lumotlarni saqlash markazi (U.Sadirov):

Boshqarma veb-saytida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni muntazam ravishda yangilab borish vazifasi topshirilsin.

3. Agarda, mas'ul xodimlar tomonidan yuqorida ko'rsatib o'tilgan holatlarga yo'l qo'ygan taqdirda ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi qonunchilikga muvofiq bekor qilinishi haqida ogohlantirilsin.

4. Mazkur yig'ilish qarorlari ijrosini nazorat qilish boshqarmaning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy komissiyasi a'zolari zimmasiga yuklatilsin.

**Komissiya kotibi**



**X.Xolmo'minov**